openbank

1377
office@openbank.uz
www.openbank.uz
100000, Tashkent, Shahrisabz 2

# YURIDIK SHAXSLARNING PUL MABLAG‘LARINI ISHONCHLI BOSHQARISH SHARTLARI

| | | |
|---|---|---|
| 1 | **Mahsulot nomi** | Ishonchli boshqarish |
| 2 | **Mahsulot turi** | Mablag‘larni ishonchli boshqarish |
| 3 | **Hisob valyutasi** | O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi - so‘m |
| 4 | **Qo‘yilma miqdori** | Minimal miqdor – 10 million so‘m;<br>Maksimal miqdor cheklanmagan. |
| 5 | **Qo‘yilma obyekti** | Tadbirkorlik subyektlarini milliy valyutada biznesni muddatli to‘lov asosida moliyalashtirish |
| 6 | **Ishonchli boshqarish muddati** | 3, 6, 9, 12 oy |
| 7 | **Qo‘shimcha badallar** | Ishonchli boshqarish hisobvarag‘iga qo‘shimcha badallar kiritish imkoniyati mavjud |
| 8 | **Qisman yechib olish** | Ishonchli boshqarish hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini qisman yechib olish mumkin emas |
| 9 | **Daromadlilik darajasi** | Ishonchli boshqarish hisobvarag‘idagi qo‘yilmalarning daromadlilik darajasi moliyaviy aktivlarga investitsiya qilishdan olingan daromaddagi Mijozning (boshqaruv muassisi) ulushi sifatida hisoblanadi.<br><br>Ishonchli boshqarish hisobvarag‘i bo‘yicha daromad har oy hisobot oyi yakuni bo‘yicha hisoblanadi.<br><br>Mijozning (boshqaruv muassisi) ulushi ishonchli boshqarish muddati va qo‘yilma miqdoriga asosan, 365 kunlik davr hisobidan kelib chiqib hamda Bank tomonidan shakllantirilgan maxsus zaxira fondlariga ajratmalarni hisobga olgan holda aniqlanadi. |

<table>
<tr><td></td><td></td><td colspan="2">Mijozning ulushi har oy hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunigacha to‘lanadi. Agar to‘lov sanasi dam olish yoki bayram kuniga to‘g‘ri kelsa, to‘lov keyingi ish kuniga ko‘chiriladi.<br><br>Mijoz tomonidan olinmagan daromad alohida hisobvaraqqa o‘tkaziladi va ishonchli boshqaruvdagi mablag‘lar miqdoriga qo‘shilmaydi.</td></tr>
<tr><td>10</td><td>Mijozning (boshqaruv muassisining) daromaddagi ulushi</td><td colspan="2">Mijozning (boshqaruv muassisining) daromaddagi ulushi quyidagicha belgilanadi:<br><br>• 3 oydan kam - 0%<br>• 3 oy - 66%<br>• 6 oy - 68%<br>• 9 oy - 70%<br>• 12 oy - 72%</td></tr>
<tr><td rowspan="3">11</td><td rowspan="3">Mijozga (boshqaruv muassisiga) qo‘yiladigan talablar</td><td>1</td><td>Yuridik shaxslar - O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari;</td></tr>
<tr><td>2</td><td>Faoliyat turi Bankning moliyaviy siyosatiga mos kelishi;</td></tr>
<tr><td>3</td><td>Bankda asosiy yoki ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘iga ega bo‘lishi.</td></tr>
<tr><td>12</td><td>Ishonchli boshqarish hisobvarag‘ini ochish</td><td colspan="2">Ishonchli boshqarish hisobvarag‘ini ochish uchun Mijoz “Openbank Biznes” mobil yoki veb-ilovasida ro‘yxatdan o‘tishi kerak.<br><br>Ishonchli boshqarish hisobvarag‘ini ochishdan oldin Mijoz Bankning mobil yoki veb-ilovasi orqali yuridik va jismoniy shaxslar bilan pul mablag‘larini ishonchli boshqarish shartnomasini tuzish uchun mo‘ljallangan ommaviy oferta hamda ushbu ma’lumotdagi shartlar bilan tanishib chiqishi lozim.<br><br>Ishonchli boshqarish hisobvarag‘iga pul mablag‘lari Mijozning asosiy yoki ikkilamchi talab qilib olinguncha hisobvarag‘idan o‘tkaziladi.</td></tr>
<tr><td>13</td><td>Ishonchli boshqarish hisobvarag‘ini yopish</td><td colspan="2">Ishonchli boshqarish hisobvarag‘i muddati tugashi bilan yopilgan deb hisoblanadi.</td></tr>
</table>

| | | |
|---|---|---|
| | | Mijoz (boshqaruv muassisi) ishonchli boshqarish hisobvarag‘ini Bankni kamida 10 kun oldin xabardor qilgan holda muddatidan oldin yopishi mumkin. |
| 14 | **Ishonchli boshqarish hisobvarag‘ini muddatidan oldin yopish** | Ishonchli boshqarish hisobvarag‘i muddatidan oldin yopilgan taqdirda, daromad ulushi mablag‘larning ishonchli boshqarish hisobvarag‘ida amalda saqlangan muddati asosida, shu muddat uchun belgilangan ulushga muvofiq qayta hisoblanadi.<br><br>Agar daromad qayta hisoblangandan keyin uning miqdori boshqaruv muassisiga ilgari to‘langan daromad miqdoridan kam bo‘lsa, hosil bo‘lgan tafovut summasi ishonchli boshqarish mablag‘laridan ushlab qolinadi. |